SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK
ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

IJTIMOIY-GUMANITAR

UO'K: 9:433:908
ORCID: 0009-0007-4206-6795

IBRAGIMOVA MANZURA MAXMASIDDIQ QIZI,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
E-mail: ibragimovamanzora@gmail.com

SOMONIYLAR DAVRI MADANIYATI: ARAB, FORS VA TURK AN'ANALARINING SINTEZI

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Somoniylar davrida (875–999-yillar) Markaziy Osiyo madaniy hayotining rivojlanishi tahlil qilinadi. Asarda Somoniylar sulolasi davrida ilm-fan, adabiyot, me'morchilik va san'at sohalaridagi yutuqlar, shuningdek, madaniyatni rivojlantirishdagi davlat siyosatining roli o'rganilgan. Maqolada alohida e'tibor bilan arab yozuvi va fors-turk madaniyati elementlarining mintaqaga ta'siri, madaniy merosni shakllantirishda ilmiy markazlar va kutubxonalar faoliyati ko'rib chiqilgan. Tadqiqot, Somoniylar davrini Markaziy Osiyoda ilmiy va madaniy uyg'onish davri sifatida yoritadi. Mazkur maqolada Somoniylar davrida (IX–X asrlar) Markaziy Osiyoda yuz bergan madaniy yuksalish jarayonlari tahlil etilgan. Somoniylar sulolasi hukmronligi davrida ilm-fan, adabiyot, me'morchilik, san'at va diniy-ma'rifiy hayot sohalarida katta yutuqlarga erishilgan. Sulola hukmronligi davrida rivojlangan shaharlar, ayniqsa, Buxoro va Samarqand shaharlarining ilmiy-ma'naviy markaz sifatidagi o'rni alohida yoritilgan. Maqolada Abu Abdulloh Rudakiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning ijodi hamda Somoniylar davrining eng yirik me'moriy obidasi bo'lgan Ismoil Somoniy maqbarasi va uning me'moriy uslubi tahlil etiladi.

KALIT SO'ZLAR: *Adabiyot, me'morchilik, "Buxoro tarixi", falsafa, falakiyot, Ismoil Somoniy maqbarasi, fors tili, arab tili.*

КУЛЬТУРА ЭПОХИ САМАНИДОВ: СИНТЕЗ АРАБСКИХ, ПЕРСИДСКИХ И ТЮРКСКИХ ТРАДИЦИЙ

АННОТАЦИЯ. Эта статья анализирует развитие культурной жизни в Центральной Азии в период Саманидов (875–999 гг.). В работе рассматриваются достижения в области науки, литературы, архитектуры и искусства в эпоху династии Саманидов, а также роль государственной политики в развитии культуры. Особое внимание уделяется влиянию арабской письменности и элементов персидско-туркской культуры на регион, а также деятельности научных центров и библиотек в формировании культурного наследия. Исследование освещает период Саманидов как эпоху научного и культурного возрождения в Центральной Азии. В статье анализируются процессы культурного подъема в Центральной Азии в IX–X веках. В период правления династии Саманидов были достигнуты значительные успехи в науке, литературе, архитектуре, искусстве и религиозно-просветительской жизни. Особое внимание уделено развитым городам, в частности Бухаре и Самарканду, как научно-духовным центрам. В статье рассматривается творчество выдающихся ученых, таких как Абу Абдуллах Рудаки, Абу Али ибн Сино, Абу Райхон Беруни, а также анализируется мавзолей Исмаила Самани, крупнейший архитектурный памятник эпохи Саманидов, и его архитектурный стиль.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. *Литература, архитектура, «История Бухары», философия, астрономия, мавзолей Исмаила Самани, персидский язык, арабский язык.*

THE CULTURE OF THE SAMANID ERA: SYNTHESIS OF ARAB, PERSIAN AND TURKIC TRADITIONS

ABSTRACT. This article analyzes the development of cultural life in Central Asia during the Samanid period (875–999). It examines the achievements in science, literature, architecture, and the arts during the Samanid dynasty, as well as the role of state policy in the development of culture. Special attention is given to the influence of Arabic script and elements of Persian-Turkic culture on the region, as well as the activities of scientific centers and libraries in shaping cultural heritage. The study highlights the Samanid period as an era of scientific and cultural revival in Central Asia. The article analyzes the processes of cultural flourishing in Central Asia in the 9th–10th centuries. During the Samanid dynasty, significant achievements were made in science, literature, architecture, arts, and religious-educational life. Particular emphasis is placed on developed cities, especially Bukhara and Samarkand, as centers of scientific and spiritual life. The article also discusses the works of prominent scholars such as Abu Abdullah Rudaki, Abu Ali ibn Sina, and Abu Rayhan al-Biruni, and analyzes the Ismail Samani Mausoleum, the largest architectural monument of the Samanid era, along with its architectural style.

KEYWORDS: *Literature, architecture, History of Bukhara, philosophy, astronomy, Ismail Samani Mausoleum, Persian language, Arabic language.*

KIRISH. Somoniylar davlatiga Somon qishlog'i (Balx yaqinida, ba'zi manbalarda- Termiz yaqinida) oqsoqoli Somonxudotning avlodlari asos slogan. Xalifa Ma'munga bo'lgan sadoqatlari evaziga 819-820-yillarda Somonxudotning nabiralari Nuh Samarqandga, Ahmad Farg'onaga, Yahyo Choch va Istaravshonga, Ilyos Hirotga hokim etib tayin tayinlanganlar. Somoniylar Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlat tuzish uchun avvalambor, kuchli markazlashgan hokimiyat tuzish kerakligini yaxshi tushunishgan. Bu, ayniqsa, Ismoil Somoniy hukmronligi davrida dolzarb masalaga aylangan. O'rta Osiyo tarixida Somoniylar sulolasining hukmronlik qilgan davri (IX–X asrlar) alohida ahamiyatga egadir. Chunki bu davrda Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlar islom dunyosining eng yirik madaniy va ilmiy markazlariga aylandi, mahalliy xalqlarning islom davridagi davlatchiligi asoslari yaratildi. Yozma manbalarda Somoniylar sulolasining turli vakillari, ular hukm surgan davrdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvol haqida batafsil ma'lumotlar mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O'rta Osiyo tarixida Somoniylar sulolasining hukmronlik qilgan davr alohida ahamiyatga egadir.Ushbu sulola tarixi bo'yicha ko'plab qo'lyozma manbalar mavjud. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari sulolaning ijtimoiy-siyosiy tarixi to'g'risida ma'lumot beradi. Abdusattor Jumanazarovning "Buxoro ta'lim tizimi tarixi" asari orqali Somoniylar davridagi ta'lim tizimini o'rganish mumkin. Shamsiddin Kamoliddin, Timur Kocaogluning "O'zbek davlatchiligi tarixidan: Somoniylar sulolasi" nomli qo'lyozmasida Somoniylar sulolasining O'rta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotidagi o'rni alohida e'tirof etiladi. B. Zohidovning "Uch daho" asari orqali Somoniylar davrida ilm-fan va adabiyot sohasiga yaratilgan imkoniyatlarni o'rganish mumkin.

Metodologik nuqtayi nazardan, Somoniylar davridagi madaniyatni o'rganishda tarixiy yondashuv, madaniyatshunoslik tahlili, sivilizatsion tahlil asosiy usullar sifatida qo'llaniladi. Qo'lyozma manbalar, me'moriy yodgorliklar hamda zamonaviy tadqiqotchilarning izlanishlari o'zaro uyg'un holda o'rganilganda Somoniylar davri madaniyati yoritish imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ismoil Somoniy va uning avlodlari hukmronlik qilgan davrda (IX–X asrlar) rasmiy til arab tili bo'lib, barcha yozishmalar va hujjatlar faqat shu tilda olib borilgan. Somoniylar hukmronligi davrida zarb etilgan barcha tangalardagi yozuvlar faqat arab tilida bo'lgan. Diniy adabiyot va qonunchilikda, shuningdek ilm-fan, ayniqsa aniq fanlar va falsafada ham faqat arab ishlatilgan. Din peshvolari va ulamolar, adiblar va kotiblar arab tilini yaxshi bilishlari shart bo'lgan. Abu Mansur al-Saolibiyning "Yatimat aldahr fi mahosin ahl al-asr" ("Asr ahli fozillari haqida zamonasining durdonasi") asari shundan dalolat beradiki, Somoniylar davrida she'riyat ham asosan arab tilida bo'lgan. Ayrim shoirlar fors tilida ham ijod qilganlar, lekin ularning she'rlari, albatta, arab tiliga tarjima qilingan. O'rta Osiyodagi arab tilli shoirlar va muhaddislar hatto hadislarni ham arabcha nazmga o'girib, she'riy shaklda ifoda etganlar. Ismoil Somoniyning akasi amir Nasr ibn Ahmad (279/892-93-yilda vafot etgan) esa o'zi arab tilida she'rlar ijod qilgan. Arab xalifaligining ilm-fan va ta'lim tizimida adabiyot va tarix fanlar qatoriga kiritilmagan, boshqa fanlar, masalan, hadis ilmi, fiqh va falsafa singari masjid va madrasalarda o'qitilmagan. Shuning uchun aynan shu ikki sohada ilk bor yangi fors tilida, ya'ni arab alifbosiga asoslangan ilk islom davrining fors tilida asarlar yozila boshlagan. Lekin Xurosonning arab amirlari faqat arab tilida ijod qilgan shoirlarni qo'llab quvvatlaganlar. Somoniylar yangi fors tili va adabiyotiga katta qiziqish bildirib, o'zlarining saroylariga yangi fors tilida ijod qiluvchi shoirlarni taklif qilganlar, ularga homiylik qilganlar. Ular musulmon hukmdorlaridan birinchi bo'lib, saroyning ichki ishlarida yangi fors tilidan foydalana boshlaganlar. Buning sababi chuqur ildizlarga ega edi.

O'rta Osiyodagi madaniy turklar qadimdan o'zlariga yaqin qo'shni bo'lgan eroniy xalqlar bilan o'zaro madaniy aloqada bo'lganlar. Xususan, ular orqali g'arbiy turklarning bir qismi zardushtiylik dinini qilganlar, VI–VIII asrlarda esa Turk xoqonligida moniylik diniy-falsafiy ta'limoti keng tarqaldi. Moniylik bilan birga turklar orasida sug'd tili va madaniyati ham keng tarqalgan va gurkirab rivojlangan. Turklarning shaharlaridagi ibodatxonalar va zoviya (xonaqoh) lar qoshidagi diniy maktablarda faoliyat olib borgan moniy rohiblari turklar orasida eroniy tillarning keng tarqalishida muhim ahamiyat kasb etganlar. Ularning dini targ'ibot faoliyati natijasida IX-XIV asrlarda moniylik sharqda Amur daryosidan g'arbda Dunay daryosigacha bo'lgan hududlarda yashovchi turkiy tilli xalqlar orasida keng tarqalgan. Xususan, mo- niylik Uyg'ur, Xakas (Qirg'iz) xoqonliklari, shuningdek, kimaklar va kidan davlatlarining rasmiy dini bo'lgan. Moniylikka oid barcha diniy matnlar sug'd tilida yozilgan. Shuning uchun sug'd tili Samarqanddan Xitoygacha bo'lgan katta hududlarda yashovchi barcha xalqlarda ikkinchi til, ya'ni din tili sifatida ishlatilgan. VII–VIII asrlarda Sharqiy Turkistonda sug'd alifbosi asosida tuzilgan uyg'ur alifbosi shakllanib, O'rta Osiyoga ham tarqalgan. Uyg'ur yozuvi islom davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmasdan Qoraxoniylar va Temuriylar davrida ham saroy yozuvi sifatida ishlatilgan.

Saolabiyning "Yatimat ul-baxr" nomli asarida qayd etilishicha, Buxoro, Xorazm va Xurosonda 119 arabiy zabon shoirlar ijod qilgan. Ularning deyarli barchasi

saroy ahli, hukmron xonadon a'zolari va boshqa oliy tabaqa vakillaridan iborat bo'lgan. Tilshunoslik, fiqh, musiqa, falsafa, matematika, falakiyot, mantiq, tarix, astranomiya va boshqa fanlar bo'yicha ilmiy asarlar asosan arab tilida yozilgan [4].

Buxoro va boshqa markaziy shaharlarda islom dinining asosiy manbalari va shariat bilimlarini o'qitish uchun madrasalar tashkil etilgan. Ushbu ilm dargohida ilm olgan yoshlar faqatgina qozi yoki alam bo'lavermay, ular orasidan dunyoviy ilmlar: tabobot, handasa, matematika, kimyo, falakiyot, falsafa, mantiq sohalari bo'yicha puxta bilim ortirgan olimlar yetishib chiqqan. Shaharlar madaniyatining ravnaqi, o'rta asrlar jamiyati, ziyolilari davrasining kengayib borishi shubhasiz somoniy hukmdorlarni ilm ahli bilan yaqinlashtirdi. Mamlakattni boshqarishda ularning bilimi va maslahatidan foydalanishdi. Hukmdorlarning aksariyati bu davrda o'z saroylarida olim, shoir va usta san'atkorlarni va turli sohalar bo'yicha qimmatbaho kitoblarni to'plashga odatlandilar. Saroyga jalb etilgan olim va shoirlar kutubxonalardagi nodir qo'lyozma asarlar bilan mag'rurlanardilar [5]. Bu davrga Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino kabi yetuk olimlar ijod qilib o'z davrining noyob qo'lyozmalarini yozib qoldirdilar.

Somoniylar davrida me'morchilik ham yuksak darajada rivojlandi. Markaziy shaharlarda bunyod etilgan memoriy obidalar buni tasdiqlaydi. Ana shunday memoriy obidalardan biri — Ismoil Somoniy maqbarasi hisoblanadi. Buxorodagi eng ko'hna me'moriy yodgorliklardan biri Ismoil Somoniy maqbarasi bo'lib, u shaharning g'arbiy qismida, Registon maydoni yaqinidagi madaniyat va istirohat bog'ining hududida joylashgan. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" da keltirilgan ma'lumotga ko'ra, o'rta asrlarda bu yerda Navkanda qabristoni bo'lgan. Ismoil Somoniy maqbarasi O'rta Osiyo me'morchiligi va san'ati tarixidagi dastlabki maqbaralardan hisoblanadi. Uning tuzilishida qadimgi so'g'd me'morchiligining an'analari saqlanib qolgan. Ismoil Somoniy maqbarasi loyihasidan tortib, hajmiy tuzilishigacha handasiy (geometrik) tartib va qoida asosida qurilgan. Maqbaraning tashqi devorlarida kirish eshiklarining tepasidagi tokchalarda g'ishtlardan terilgan murakkab ramzlar mavjud bo'lib, murakkab geometrik shakllar majmuasidan iborat. Bu ramzlar bir birining ichidagi kvadrat va romb shakllar, va ularning o'rtasiga joylashtirilgan doira shaklidan tashkil topgan. hunisi diqqatga sazovorki, birgina Ismoil Somoniy maqbarasining o'zida 3 xil ramzlar uchraydi: biri buddaviy-moniy mandala, ikkinchisi otashparastlarning otashdoni, uchinchisi esa nasroniylarning xochi. Bu 3 ta turli dinlarning ramzlari bir yerda mujassam bo'lgani shundan dalolat beradiki, bu binoni qurganlar moniylik diniy falsafiy ta'limotiga e'tiqod qilganlar. Ma'lumki, moniylik mazkur 3 ta dinning qorishuvidan hosil bo'lib, unda har 3 ta dinning ma'naviy qadriyatlari e'zozlangan. Ayniqsa, moniylikka buddaviylik dinining ta'siri kuchli bo'lgan. Moniylar o'zlarining payg'ambari Moniy bilan bir qatorda Zardusht, Budda va Isoni ham payg'ambarlar sifatida tan olganlar. Demak, Ismoil Somoniyning islomdan oldingi ajdodlari moniy bo'lganlar. Ismoil Somoniy o'z ajdodlarining diniy e'tiqodini yodida tutib, unga hurmat bilan qaragan va ularning ramzlarini Buxoroda qurdirgan sulolaviy maqbaraning devoriy naqshlarida ifodalanadi.

XULOSA. Somoniylar davri — O'rta Osiyo tarixida madaniy, ilmiy va adabiy yuksalishning eng muhim bosqichlaridan biridir. Bu davrda islom sivilizatsiyasi va milliy qadriyatlar uyg'unlashib, o'ziga xos madaniy muhit shakllandi. Buxoro, Samarqand, Marv kabi shaharlarda ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilik jadal rivoj topdi. Abu Abdulloh Rudakiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy kabi allomalar butun musulmon olamiga tanildi. Somoniylar davlati ilm ahli va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlab, fan va madaniyat markazlariga aylangan. Shuningdek, bu davrda fors-tojik tili adabiy til sifatida shakllanib, Sharq adabiyotining yuksalishiga zamin yaratdi. Umuman olganda, Somoniylar davri madaniyati nafaqat O'rta Osiyo, balki butun Sharq sivilizatsiyasi tarixida muhim o'rin egallab, keyingi asrlarda ilm-fan va san'atning rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 2-jild. T.:2001 .B.402.
2. Jumanazarov Abdusattor.Buxoro ta'lim tizimi tarixi.-Toshkent, "Akademnashr",2017. B. 20
3.Ahmedov M.K. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. T.:O'zbekiston,1995 B 96-97.
4.Abu Mansur as-Saolabiy. Yatimat ul-baxr:. –T.:1976, 186-bet.
5.Zohidov B. Uch daho(Farobiy, Beruniy, Ibn Sino).-T.,1987,-32-bet.
6.Narshahiy. Buxoro tarixi. –T.:Kamalak. 1991.
7. Sagdullayev A.S, Eshov B.J va boshqalar. O'zbekiston tarixi. 1-qism. Tshkent "NIF MSH" 2024. B 350.
8. Kamoliddin Shamsiddin, Timur Kocaoglu Timur. O'zbek davlatchiligi tarixidan: Somoniylar sulolasi. T.:"fan ziyosi" 2024 B. 46-57.
9. Shamsuddinov Rustambek, Shodi Karimov. Vatan tarixi.T.:Sharq. 2010. B. 174-178.